



## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ZIDDIYATLI KOMMUNIKATIV VAZIYATLARDA SHAXSLARARO MULOQOTNING TARJIMADAGI LINGVOKULTUROLOGIK FARQLARI

*Xushnazarova Gulnoza Furxatovna,*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ziddiyatli kommunikativ vaziyatlarda shaxslararo muloqot xususiyatlari, konflikt jarayonida ishlatiladigan nutq birliklarining lingvokulturologik farqlari hamda ularning tarjimada ifodalanish muammolari tahlil qilinadi. Turli madaniyatlarda bahs, qarama-qarshilik, norozilik bildirishning til vositalari, pragmatik maqsadlari va nutq strategiyalari solishtirilib, tarjimada kontekst va madaniy omillarning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, konfliktli muloqot, shaxslararo kommunikatsiya, pragmatik ekvivalentlik, yumshatish strategiyasi, bilvosita ifoda, muloqot odobi.

Shaxslararo muloqot jarayonida ziddiyatli vaziyatlar eng murakkab kommunikativ holatlardan biri hisoblanadi. Konflikt vaqtida shaxslar turli nutq strategiyalaridan — qat'iy inkor, rad etish, ayblash, keskin javob, yumshoq o'tkazish, bilvosita norozilik kabi vositalardan foydalanadilar. Ingliz va o'zbek madaniyatlari bir-biridan sezilarli farq qilgani uchun ziddiyatli vaziyatda qo'llanadigan nutq formulalari va ularning tarjimasi ko'p hollarda semantik emas, balki **pragmatik ekvivalentlik** talab qiladi. Tarjima jarayonida lingvokulturologik farqlar, milliy etiket, madaniy konnotatsiyalar, muloqot odobining o'ziga xosligi e'tiborga olinmasa, matn ma'nosi buzilishi yoki kommunikativ maqsad noto'g'ri tushunilishi mumkin. Har qanday jamiyatda shaxslararo muloqot jarayonida ziddiyatli vaziyatlar muqarrar ravishda yuzaga keladi. Bunday holatlarda odamlar o'z manfaatlarini himoya qilish, norozilik bildirish, o'z fikrini asoslash yoki



raqibning fikriga e'tiroz bildirishga majbur bo'ladilar. Aynan mana shunday vaziyatlarda tilning lingvopragmatik unsurlari, nutq strategiyalari, madaniy normalar va muloqot odobi muhim rol o'ynaydi. Ingliz va o'zbek tillari — ikki turli madaniyatga mansub bo'lgan jamiyatlarning muloqot vositalari sifatida — ziddiyatli vaziyatlarni boshqarishda o'ziga xos farqlarni namoyon etadi. Ushbu farqlarni tarjima jarayonida hisobga olmaslik nutqning mazmunini, ohangini va kommunikativ niyatini noto'g'ri etkazilishiga olib kelishi mumkin.

Ingliz tilidagi konflikt jarayonlarida odatda yumshatish, bilvosita ifodalar, diplomatik murojaatlar ustunlik qiladi. Bu ingliz madaniyatiga xos bo'lgan individualizm, shaxsiy hududga hurmat (personal space) va ijtimoiy vazminlik kabi qadriyatlardan kelib chiqadi. Misol uchun, ingliz tilida keskin e'tiroz bildirilayotgan bo'lsa ham, gap ko'pincha yumshoq shaklda boshlanadi: *“I understand what you mean, but...”*, *“I’m afraid I disagree.”*, *“Could it be possible that...?”* kabi konstruksiyalar ziddiyat kuchayib ketmasligi uchun qo'llanadi. Yuzaga kelgan konfliktni muloyimlashtirish ingliz jamiyati uchun nafaqat kommunikativ norma, balki ijtimoiy etika hisoblanadi. O'zbek madaniyatida esa kommunikativ jarayonda kollektivizm, ijtimoiy mavqega hurmat, kattaga ehtirom, yumshoq ohangda gapirish kabi qadriyatlar muhim sanaladi. Ziddiyat paytida o'zbek nutqida ham yumshatish uchraydi, biroq uning qo'llanish darajasi vaziyatga, suhbatdoshlar o'rtasidagi masofa va ijtimoiy rolga bog'liq bo'ladi. Masalan, *“Sizning fikringizni hurmat qilaman, lekin buning boshqa tomoni ham bor”*, *“Iltimos, shuni inobatga olingki...”* kabi iboralar e'tirozni yumshatish uchun ishlatiladi. Biroq kundalik hayotda, ayniqsa norasmiy muloqotda, ba'zida bevosita norozilik ham uchrab turadi: *“Bu fikrga qo'shilmayman.”*, *“Bunday bo'lmaydi.”* kabi.

Ko'rinib turibdiki, ingliz va o'zbek madaniyatlarida ziddiyatni ifodalashning lingvokulturologik asoslari turlicha bo'lsa-da, har ikki tilda ham mojaroni yumshatish mexanizmlari mavjud. Ammo bu mexanizmlar turlicha ishlaydi: ingliz tilida yumshatish — majburiy norma bo'lsa, o'zbek tilida u ijtimoiy rol, yosh, maqom va vaziyatga qarab qo'llanadi.



Tarjima jarayonida ushbu farqlar ayniqsa keskin seziladi. Bevosita tarjima qilingan jumla pragmatik ma'noni yo'qotib, qo'pol yoki ortiqcha muloyim bo'lib qolishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *"You are wrong!"* iborasi juda keskin talaffuz qilinadi va odatda norasmiy yoki janjalli vaziyatda ishlatiladi. Agar tarjimon uni *"Siz noto'g'ri!"* deb so'zma-so'z o'g'irsa, o'zbek muloqotidagi odob-axloq normalari buziladi. To'g'ri tarjima variantlari *"Siz adashyapsiz"*, *"To'g'ri emas shekilli"* kabi yumshoq shakllarda ifodalanishi kerak. Bu tarjimada lingvokulturologik moslashuv (adaptatsiya) usuli qo'llanilishi zarurligini isbotlaydi. Aksincha holatlar ham uchraydi: o'zbekchalashgan keskin iborani ingliz tiliga to'g'ri tarjima qilish uchun uni yumshatish talab etiladi. Masalan, o'zbekcha *"Bunday gapni qo'ying!"* degan ibora ingliz tilida *"Please, don't say that."* yoki *"Let's not go into that."* tarzida muloyimlashtiriladi. Chunki so'zma-so'z *"Stop saying that!"* juda dag'al eshitiladi. Demak, tarjimada semantik ekvivalent yetarli emas, balki pragmatik ekvivalent ham talab etiladi.

Lingvokulturologik farqlar ziddiyatli vaziyatlarda ishlatiladigan nutq strategiyalarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ingliz tilida *"bilvosita e'tiroz"* strategiyasi ayniqsa rivojlangan bo'lsa, o'zbek tilida *"izoh berish"* strategiyasi keng tarqalgan. Inglizlar *"I see your point, but..."* deb norozilikni bilvosita bildirsa, o'zbeklar ko'proq izohlash orqali muloqotni yumshatadilar: *"Mana bu tarafdin qarasak boshqacharoq bo'lar ekan."* Emotsional ekspressivlik darajasi ham muhim farqdir. Inglizlar odatda hissiyotlarni yashirishga moyil bo'ladilar, ziddiyat davomida ovoz baland ko'tarilmaydi, tana tilida jahl ni yashirishga urinish seziladi. O'zbek jamiyatida esa hissiyotlar tabiiy ravishda ifodalanishi odatiy hol; ovoz ohangi, tana holati, qo'l harakatlari ziddiyat kuchayganini bildirib turadi. Tarjima jarayonida ohangni to'g'ri yetkazish uchun qo'shimcha kontekstual izoh yoki moslingvistik vositalardan foydalanish talab qilinadi. Tarjimon madaniy nutq normalarini chuqur bilishi lozim. Masalan, ingliz tilida *"I need some space"* iborasi hissiy masofa so'rashni anglatadi. O'zbek tilida uni so'zma-so'z tarjima qilish noto'g'ri talqin keltirib chiqaradi. Unga mazmunga mos tarzda *"Yolg'iz qolib o'ylab"*



*olishim kerak*” deb tarjima qilinadi. Demak, har bir ibora ma’nosi ortida yotgan madaniy semantikani anglash tarjimonning eng muhim vazifalaridan biridir. Yakun qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillarida ziddiyatli kommunikativ vaziyatlar til vositalari, strategiyalari, yumshatish darajasi va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq ravishda sezilarli farqlarga ega. Bu farqlar tarjimada doimo e’tiborga olinishi kerak. Tarjima jarayoni faqat lug‘aviy ekvivalentlarni tanlash emas, balki madaniy mazmunni to‘g‘ri yetkazish, kommunikativ niyatni moslashtirish, ohang va muloqot odobini saqlab qolishdan iborat murakkab jarayondir. Shuning uchun bunday mavzudagi tadqiqotlar tarjimashunoslik, lingvokulturologiya, pragmalingvistika kabi ilmiy sohalar uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brown, P., & Levinson, S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press, 1987.
2. Leech, G. *Principles of Pragmatics*. London: Longman, 1983.
3. Thomas, J. *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. Routledge, 1995.
4. Grice, H. P. *Studies in the Way of Words*. Harvard University Press, 1989.
5. Maslova, V. A. *Лингвокультурология*. Moskva: Academia, 2001.
6. Vereshchagin, E. M., & Kostomarov, V. G. *Язык и культура*. Moskva: Indrik, 2005.
7. Karasik, V. I. *Языковая личность: лингвокультурологический аспект*. Volgograd: Peremena, 1997.
8. Scollon, R., & Scollon, S. W. *Intercultural Communication*. Blackwell, 2001.
9. Yo‘ldoshev, M. *Pragmatik lingvistika asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
10. Karimov, S. *O‘zbek tili pragmatikasi*. Toshkent: Fan, 2019.
11. Shoabdurahmonov, Sh. *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent: O‘qituvchi, 2005.